

---

## Xotin-qizlar faollari faoliyatini takomillashtirish bo'yicha amaliy seminar o'tkazildi

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 7 martdagi "Oila va xotin-qizlarni tizimli qo'llab-quvvatlashga doir ishlarni yanada jadallashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-87-sonli Farmoni bilan tasdiqlangan 2022-2026 yillarda xotin-qizlarning mamlakat iqtisodiy, siyosiy va ijtimoiy xayotining barcha jabhalarida faolligini oshirish bo'yicha Milliy dasturni 2022-2023 yillarda amalga oshirishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlar rejasining 99-bandi ijrosini ta'minlash, shuningdek, oila institutini mustahkamlash va xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash bo'yicha davlat siyosatini izchil amalga oshirish maqsadida barcha shahar va tumanlarda har bir mahalladagi xotin-qizlar faollarini hamkor tashkilot rahbarlarini jalb qilgan holda o'zaro hamkorlikda ishlash tizimini takomillashtirish va O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60 Farmonini va Vazirlar Mahkamasining 2022 yil 31 martdagi 145-sonli qarori yuzasidan o'quv seminarlar tashkil etish vazifasi belgilangan.

Shu munosabat bilan, Farg'ona shahridagi barcha mahalla fuqarolar yig'inlaridagi xotin-qizlar faollari uchun o'quv seminari tashkil etildi. O'quv seminarida xotin-qizlar o'rtasida ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarni muvofiqlashtiruvchi viloyat targ'ibot guruhi rahbari S.Alimova, Diniy ishlar bo'yicha boshqarma bosh mutaxassisi D.G'ofurova, Respublika ma'naviyat va ma'rifat markazi shahar bo'limi raxbari A.Soyibnazarov, shahar bosh otinoyisi M.Ahmadaliev, 70 nafar faol xotin-qizlar ishtirok etdilar. O'quv seminarni S.Alimova ochib, xotin-qizlar o'rtasida ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarni muvofiqlashtirish bo'yicha targ'ibot guruhlari faoliyatini tashkil etish to'g'risida ko'rsatmalar berdi. Guruhlarning maqsad va yo'nalishlari, guruhlarni tashkil etish tartibi, ularga qo'yilgan vazifalar haqida gapirdi. D.G'ofurova xotin-qizlarga diniy masalalar berish bo'yicha demokratik tamoyillarni yodda tutish, vijdon erkinligi va boshqa diniy masalalar bo'yicha ma'ruzalar o'qidi.

M.Ahmadaliev xotin-qizlarga diniy ta'lim berish masalalari, qonuniy va noqonuniy diniy ta'lim to'g'risida tushuntirishlar berib o'tdi. Seminarda faollar o'zlarini qiziqtirgan savollarga javob oldilar.

2022-09-12 17:32:40